

O'RTA OSIYODA TA'LIM VA TARBIYA

Sulaymonova SHaxzoda SHuhrat qizi

Fan va Texnologiyalar Universiteti

“Boshlang'ich ta'lim yo'nalish talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'rta Osiyoda sharq mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari, pedagogika nazaryasi va tarixi haqida qisqacha yoritib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, pedagogika, ma'naviy fazilatlar, ilm, insonparvarlik, odob, barkamol inson.*

*“Shavkati inson erur ilm-u adab,
E'tibor etmas anga naslu nasab”.*

(Abdulla Avloniy)

Ta'lim va tarbiy tarixini o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislar ta'lim va tarbiyaning samarali ta'sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida eramizdan oldingi davrlardayoq ta'lim –tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o'qituvchiga bo'lgan talablar kuchayib bordi. O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshladi. Miloddan avvalgi VII –VI asrlarda O'rta Osiyoda ichlab chiqarish kuchlarining ortib borishi bilan ijtimoiy hayotda ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Turk va fors tilida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar yuzaga keldi. Yosh vlodni mustaqil hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo'llanib kelingan, yerli millatning o'ziga xos urf-odati va an'analariga mos ravishda tatbiq etilgan ta'lim va tarbiyaning noyob usul va vositalari, tadbir va shakllari vujudga kela boshladi. Hali maktab bo'lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davirdayoq qabila a'zolari bolalarda mehnatsevarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasida aql idrok bilan faoliyat olib borishgan. Ularning ta'lim-tarbiya usullari yillar davomida hayot tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davirning mevasi sifatida bizning davrimizgacha yetib keldi. VII asrlarga kelib O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta'lim va tarbiya beruvchi mudarrislarining qizg'in faoliyati hamda ularga qo'yiladigan talablarning nihoyatda rang-barangligi va xilma-xilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk

ibtidoiy jamoa va quldorlik davrlaridan boshlab, bolalarning ta'lim va tarbiyasiga javobgar ulamolar hamda mudarrislar nasihat, tushuntirish, rag'batlantirish maqtash, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, taqiqlash, qo'rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Biroq mudarrislarining o'zi bolaga ta'lim-tarbiya berish uchun mukammal amaliy va nazariy bilimga ega bo'lishi kerak edi. SHu sababli mudarrislar savodli madrasa toliblari orasidan tanlangan va ma'lum muddat tayyorgarlikdan o'tishgan. Markaziy Osiyoning Xorazm zaminida shakllangan eng qadimiy va "O'tmishdagi dinlarning eng kuchlilaridan bo'lgan" Yu.A. Rapport zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" da bolalar ta'lim tarbiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Avestoda ta'kidlanadiki bilim va tarbiya hayotning eng muhim tirgagi bo'lib hisoblanadi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yozishni o'rganish asosida bilim olish kerak, so'ngra esa odob-axloqi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin. Kohin muallimlari oqsoqollar, Kengashi tomonidan tanlanib qat'iy belgilangan qoidalari asosida yoshlarga ta'lim va tarbiya berishganda "Avesto" da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan:

- a) diniy va axloqiy tarbiya;
- b) jismoniy tarbiya;
- d) o'qish va yozishga o'rgatish.

Buyuk allomalarimiz o'z asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, mas'uliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharafli ekanligini yoritib, muallimning mahorati, ularga qo'yilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi to'g'risida o'z mulohazalarini bildirganlar. O'rta Osiyoda tarbiya haqidagi qarashlar, eng qadimgi yozma manbalar ko'rinadiki, zardushtiylik ta'limotida ilm-ma'rifatning kuchiga qattiq e'tiqod qilingan va jamiyat hayotida ham oqibat natijada ilmu hikmat yutib chiqadi, deb hisoblangan. "Avesto" da yuqorida keltirilgan dalillar shuni ko'rsatadiki qadimgi ajdodlarimiz bolalarning faqat benuqson tug'lishiga va chaqaloqligidan jismoniy tarbiyasiga jidiy e'tibor beribgina qolmasdan shuningdek, ularning aqlan etuk bo'lishiga, hikmat o'rganishiga, ma'naviy sof bo'lishiga, yaxshilik va ezgulik xislatlarini egallashlariga ham bevosita g'amxo'rlik qilishgan. Qisqasi, bolalarda axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnatsevarlik, ish-bilarmonlik, rostgo'ylik, saxiylik fazilatlarini tarbiyalashga jiddiy e'tibor berilgan.

O'rta Osiyo qomusiy olimlarning ijtimoiy pedagogik g'oyalari.

Ijtimoiy pedagogika g'oyalar va nazariyalarning shakllanishida SHarq uyg'onishi davri olimlarning asarlari beqiyos o'ringa ega. Ular faoliyatining

mohiyati shuki avval mavjud bo'lgan o'sha davirni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asoslangan tizimi asosida to'planganligidadir,yetuk olimlarning faoliyati xarakteri-ilm bilan mashg'ul bo'lish ijtimoiy pedagogik qarashlarning mzmuniga o'z tasirini ko'rsatdi. Buyuk olim Al-Xorazmiy (783-850 y)ning asarlari yorqin didaktik xarakterga egadir.U savol-javob metodi orqali bilimlar qulgakiritilishini,bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kiritilishni,jamiyatning faol'azosiga aylanishini ta'kidlagan.Al-Xorazimiy-Farobiy,Beruniy,Ibn Sino,Ulug'bek-kabi olimlar o'z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi,tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini tushunishgan va buni tadbiiq etishgan.Bu avvalambor ular ta'limning maqsadi hayotga tayyorlash,axloqiy norma va qoidalar,kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo'lishida deb bilganliklarida namoyon bo'lgan.Buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy (973-1051y)ta'lim jarayoniga qo'llaniladigan ilmiy usullarni ichlab chiqqan .U shuningdek ta'lim tamoyillarini ham tasniflagan.Uning pedagogik qarashlarining ijtimoiy yo'naltirilishi u axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o'z ifodasini topgan.Olimning tarbiya,shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy hayot uchun ilm va mehnatning ahamiyati haqidagi g'oyalari hozirgacha muhumligini saqlab qolgan.Beruniy inson kamolotidagi omillarni quyidagi asosiy qisimlarga bo'ladi:

- ma'rifat va ta'lim beruvchining ilm-ma'rifatli bo'lishi;
- Ilm-fanni e'tirof qiluvchi muhit;
- Ijtimoiy muhit va to'g'ri tarbiya;
- ta'lim beruvchining yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi.

Bular bugungi pedagogikaning metodologik asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

UYg'onish davrining yetuk namoyondalari Abu Nasr Farobiy,Abu Rayhon Beruniy,Abu Ali ibin Sino,Unsurul Maoliy Kaykovus,Abul-Qosim Umar Az-Zamaxshariy,SHayx Sa'diy SHeroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy,Jaloliddin Davoniy,Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo'lajak murabbiylarga muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlrga o'tib,o'z qimmatini yo'qotmagan mudarrislarni,tarbiyachilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib,boyitib borishgan.Zero insoniyat kelajagi va kurrai zaminning gullab-yashnashi faqat ta'lim va tarbiyaga bog'liq ekanligini buyuk mutafakkirlar chuqur his qilishgan.Shuning uchun muallimlar kuchi va g'ayrati bilan barkamol avlodni tarbiyalash ularning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan.O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashab o'tgan

allomalarning bu borada o'z o'rni va hurmati bor. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalash, allomalimiz ijodiy merosidan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

Xulosa

Yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlarimizga asoslangan holda tarixda ham hozirgi kunda ham ta'lim bilan tarbiyaga juda kata e'tibor qaratilgan, turli xil izlanishlar olib borilgan. Ta'lim nazariy bilimlarni birlashtirsa, tarbiya esa bilimlar va xulq odob fazilatlarini birlashtiradi.

ADABIYOTLAR:

1 .Xoliqov A.A Pedagogik mahorat darslik. Toshkent "Iqtisod-Moliya"2011. www.ziyouz.com kutubxonasi

2.Komiljon.H va Sanobar Nishonova "Pedagogika Tarixi" .Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Miliy kutubxonasi nashryoti Toshkent-2005.

3.azkurs.org/al.html?page=2.